


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

60211700 -Xalq ijodiyoti bakalavriat ta'lif yo'nališining

MALAKA TALABLARI

Toshkent - 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti.

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “25” 06 dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
4. Fanlar katalogining tuzilishi	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	11
Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

60211700 – Xalq ijodiyoti ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60211700 – Xalq ijodiyoti ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma’sul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruvi xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

60211700 – Xalq ijodiyoti ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari san’at va madaniyat muassasalaridagi ijodiy jarayonni tashkil etish, faoliyat tizimini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish, san’at va madaniyat sohasida kompleks masalalarni yechish, madaniyat va san’at sohasini boshqarishga tegishli muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan vositalar, usullar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Madaniyat, san'at, xalq badiiy ijodiyoti va ijtimoiy sohalarda tashkilotchilik va boshqaruv jarayoni, professional va havaskor badiiy jamoalarda ijodiy jarayoni, bolalar musiqa va san'at maktablaridagi o'quv-tarbiya jarayoni, madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish jarayonlari, madaniyat va san'at muassasalarida ijodiy jarayonlari.

60211700 – Xalq ijodiyoti bakalavriat ta'lif yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lif muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

60211700 - Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lif yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari Baxshi. (*xalfa, jirov, oqin ijrochilik yo'nalishlaridan biri ko'rsatiladi.*) Baxshichilik va dostonchilik fanlari o'qituvchisi, kvalifikatsiyalariga ega bo'lish mumkin.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy- tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ijodiy ishlab-chiqarish;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *ijodiy-ijrochilik; (60211700 - Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lif yo'nalishi)*
- umumiyo'rta va o'rta maxsus, professional, maktabdan tashqari ta'lif muassasalari hamda musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan muktab va muktab-internatlarda pedagogik; (*60211700 - Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lif yo'nalishi*)

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60211700 – Xalq ijodiyoti ta'lif yo'nalishlari bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faolyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan madaniyat va san'atga oid ilmiy-ijodiy axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

madaniyat va san'at sohasi obyekti va predmetlarini nazariy va amaliy muammolariga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ishtiroy etish;

mavzu bo'yicha ilmiy-ijodiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-ijodiy natijalarni va ishlanmalarini amaliyatga tatbiq etishda qatnashish;

respublika va xorijda chop etilgan folklor va etnografiyaga oid ilmiy-ijodiy axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

folklor va etnografiya sohasiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

kasbiy faoliyat obyekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihamalarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish.

Tashkiliy-boshqaruv va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatida:

ijodiy-ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ijodiy-ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

ijodiy-ishlab chiqarishda zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslub va mexanizmlarini ishlab chiqish;

mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyatga tatbiq etish;

ijodiy-ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

turli fikrlilik sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

birlamchi ishlab chiqarish guruh ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

musiqa san'atining an'anaviy janrlari va sohalarida ijodiy ijrochilikni amalga oshirish;

xonandalik, sozandalik, baxshichilik va raqs san'ati bo'yicha ijrochilikni amalga oshirish;

“Xalq havaskorlik jamoasi” va “Bolalar namunali jamoasi” unvoniga ega jamoalarga ijodiy yo‘nalish berish;

madaniyat va aholi dam olish markazlarida badiiy rahbarlik sifatida ijodiy jarayonni tashkil etish;

madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi to‘garaklar faoliyatini tashkil etish;

madaniyat va san’at sohasi bo‘yicha aholiga madaniy va maishiy xizmat ko‘rsatishning amaliy jarayonlarini ishlab chiqish va qo‘llash.

tanlovlardan ko‘riklarda ijrochi va jamoa rahbari sifatida ishtirok etish; o‘z ustida muntazam ishlashi, ijodini takomillashtirib borish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ijodiy-ijrochilik faoliyatida: (60211700 - Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta’lim yo‘nalishi)

xalq dostonlarini yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog‘liq ijodiy ishlarni olib borish;

xalq dostonlarini ijro etish ko‘nikmasi va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallash;

ijro etilayotgan xalq dostonlarining mazmuni, shakli va uslubini tushunish, dostonchilik muktablarining ijro usullarini ajrata bilishi va ijroni baholash;

katta va kichik jamoalarni badiiy rahbar sifatida boshqara olish;

turli xil jamoalarni biriktirgan holda xalq dosonlarining ijrosiga rahbarlik qila olish;

ijrochilikda nag‘ma va nomalarni o‘z o‘rnida qo‘llash, ijroda badihago‘ylik san’atini namoyish etishi;

doston ijrosida aktyorlik *qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.*

Umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus, professional va muktabdan tashqari ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:

umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus, professional, muktabdan tashqari ta’lim tizimining ixtisoslikka mos ta’lim muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy va yakka (laboratoriya) mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish usullarini ishlab chiqish va o‘tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lган о'quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;

mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

o'quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalga oshirish;

musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta'lim jarayoniga singdirish;

o'quv jarayonini, o'quv-uslubiy, ma'naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg'or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish;

o'quvchilarning o'z musiqiy uslublarini topishiga va musiqa orqali o'z fikrlarini ifodalashiga yordam berish orqali ijodiy fikrlashini rivojlantirish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

Davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

madaniyat va san'at sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlarni mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish;

meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

havaskor badiiy jamoalar va to'garaklarni tashkil qilish;

havaskor badiiy jamoalar va to'garaklarning uslubiy ta'minotini tashkil qilish;

badiiy jamoalar uchun repertuarlar tanlash;

xalq kuy-qo'shiqlarini notalashtirish va moslashtirish;

festival, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish;

O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish va targ'ib etish bilan bog'liq tashkiliy va ijodiy ishlarda qatnashish;

musiqiy ijrochilikka zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish;

madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish, madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish;

ijodiy-ishlab chiqarishni tashkil etish, aholining dam olishini tashkil qilish;

badiiy jamoalarni tashkil etish va faoliyatini boshqarish, festival, ko'rik-tanlovlarni tashkil etish;

O'zbekiston nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish va targ'ib etish bilan bog'liq tashkiliy va ijodiy ishlarni tashkillashtirish;

aholi o'rtaida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish kabi ko'nikmalariga ega bo'lish.

meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

folklor-etnografik jamoalar va to'garaklarni tashkil qilish;

folklor-etnografik jamoalar va to'garaklarining uslubiy ta'minotini tashkil qilish;

xalq ijodiyoti sohasida ishini tashkil etish va boshqarish;

folklor qo'shiqlarini notalashtirish va ijroga moslashtirish;

aholining dam olishini tashkil qilish;

festival, ko'rik-tanlovlarni tashkil etish;

60211700 - Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'limga yo'naliishi bo'yicha

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish. Madaniyat va san'at sohasidagi zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish hamda ta'limga jarayonlariga oid turli usul va texnologiyalarni ta'limga jarayoni sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini hisobga olgan holda ishlab chiqish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

tashkiliy tuzilmalarni ishlab chiqish, tashkilotlarning kadrlarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda ishtiroy etish, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, amalga oshirilayotgan harakatlar uchun shaxsiy javobgarlikni hisobga olgan holda vakolatlarni taqsimlash va berish qobiliyati;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

xalq ijodiyoti, o'zbek baxshichilik san'atining tarixi va nazariy masalalari (muhit, ustoz va shogird munosabatlari, dostonchilik maktablari, an'ana va badihago'ylik, epik janrlarning genezisi, ularning tizimi, dostonchilikka yozma adabiyotning ta'siri va h.k.)ni bilishi va professional faoliyatida foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;

jahon epik san'ati namunalarini farqlay olish;

dostonchilik maktablarining o'ziga xos musiqiy yo'nalishini bilishi, dostonlarda qo'llaniladigan nag'ma va nomalarni o'z o'rnida qo'llay olish, ularni notaga tushirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'zbek dostonchilik san'atining tarixiy taraqqiyot jarayoni, mahalliy baxshichilik uslublarining shakllanishi, yirik namoyandalari, ustoz ijrochilarining yillar davomida epik janr va shakllarida yaratgan adabiy va musiqiy repertuari, ijrochi namoyandalar ijodiy faoliyatlar, bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni, ijodkorlarning ijro uslublarini ajrata olish va tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

baxshichilik san'ati, doston kuylash mahoratini "Ustoz-shogird" an'analari doirasida avlodlarga o'tkazish, badihago'ylik qobiliyatini, yodlab olingan an'anaviy misralar, epik klishelar asosida yangilarini to'qiy olish qudratini, ularni tasvir vaziyatiga qarab turli xil stilistik o'zgarishlar bilan qo'llay bilish san'atiga ega bo'lishi;

xalq baxshilarining repertuar birligi, ijro va kuylarning o'ziga xos jihatlari, dostonchilikning asriy an'analari, dostonchilik maktablariga xos poetik yo'l, uslub, repertuar xarakteri, ijro usullarini bilan bir-birlaridan farqlay olish;

xalq dostonlarining versiya va variantlarini to'liq bilishi, doston ijrosida uning mohiyatini ochib bera olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish, amalga oshirilayotgan harakatlar uchun shaxsiy javobgarlikni hisobga olgan holda vakolatlarni taqsimlash;

xalq ijodiyoti sohasida hamkorlik aloqalari, uchrashuvlar, mahorat darslari, seminarlarni yuqori darajada o'tkazish;

madaniyat va san'at sohasidagi zamонавиъ axborot tizimlaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlariga oid turli usul va texnologiyalarni ishlab chiqish;

xalq ijodiyoti, baxshichilik yo'nalishida ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, doston ijrochilik san'atini radio-televiedenie, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ'ib eta olish.

pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, ta'lim oluvchilar bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, musiqiy ta'lim va tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, musiqa ta'limida metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, ularni samarali qo'llay olish;

baxshichilik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijrochilik, ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy ta'lif vositalari, texnika va texnologiyalardan foydalana olish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq eta olish;

izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borishi, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish ko'nikma va malakalariga *ega bo'lishi lozim*;

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. O'quv amaliyoti;
3. Ishlab chiqarish amaliyoti;
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiylukda yuzlamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	O'zYT 20014	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FAL 20014	Falsafa	120	4	3
1.03	DIN 20014	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O'z RT 20014	O'zbek (rus) tili	120	4	1,2
1.05	XT 20014	Xorijiy til	120	4	1,2
1.06	AT 20014	Axborot texnologiyalari	120	4	3,4
1.07	JST 20012	Jismoniy tarbiya va sport	60	2	1
1.08	KPYA 20012	Kasbiy psixologiya	60	2	5
1.09	SOLF 20014	Solfedjio	120	4	3,4
1.10	YAQ 200114	Yakkaxon qo'shiqchilik	420	14	1,2,3,4,5,6,7
1.11	RAQS 200114	Raqs	420	14	1,2,3,4,5,6,7
1.12	CHI 200114	Cholg'u ijrochiligi	420	14	1,2,3,4,5,6,7
1.13	O'A 20014	O'zbek adabiyoti	120	4	1,2
1.14	JA 20014	Jahon adabiyoti	120	4	3,4
Xalq ijodiyoti: ashula va raqs ta'lif yo'nalishi bo'yicha majburiy fanlar					
1.15	MST 20014	Madaniyat va san'at tarixi	60	2	7



1.16	BJBIU 200110	Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti	360	12	4,5,6,7
1.17	SOZA 200136	Sozandalar ansamblı	1080	36	1,2,3,4,5,6,7
1.18	ASHUA 200136	Ashulachilar ansamblı	1200	40	1,2,3,4,5,6,7
1.19	MN 20014	Musiqqa nazariyasi	120	4	1,2
1.20	O'XRS 200110	O'zbek xalq raqslarini sahnalaşdırish	300	10	5,6,7
1.21	RSA 20012	Raqs san'ati asoslari	60	2	5
1.22	SMA 20014	Sahna madaniyati va aktyorlik mahorati	120	4	3,4
2.00		Tanlov fanlar	300	10	5,6,7
		Tanlov fanlar	300	10	5,6,7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Xalq ashula va rags ansamblı rahbari, xonanda</i>			

Xalq ijodiyoti: folklor va etnografiya ta'lif yo'naliishi bo'yicha majburiy fanlar

1.15	MST 20012	Madaniyat va san'at tarixi	60	2	7
1.16	FOLK 20014	Folklor tarixi	120	4	1,2
1.17	FOLKJI 200136	Folklor jamoa ijrochiligi	1080	36	1,2,3,4,5,6,7
1.18	FOLKAS 200138	Folklor asarlarini sahnalaşdırish	1140	38	1,2,3,4,5,6,7
1.19	O'zXEET 20014	Folklor-etnografik jamoalari bilan ishlash uslubiyoti	120	4	6,7
1.20	O'zXE 20016	O'zbek xalqi etnografiyasi	180	6	4,5,6
1.21	FCHA 20018	Folklor cholg'ulari ansamblı	240	8	1,2,3,4
1.22	O'zNM 20016	O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi	180	6	4,5,6
1.23	FOLKEIM 20016	Folklor-ekspeditsiya ishlarining metodikasi	180	6	5,6,7
2.00		Tanlov fanlar	300	10	5,6,7
		Tanlov fanlar	300	10	5,6,7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Folklor-etnografik jamoalari tashkilotchisi, badiiy rahbar</i>			
		Jami	6060	202	
		Malakaviy amaliyotlar	900	30	2,4,6,8
		Bitiruv malakaviy ishi	240	8	8
		Jami	1140	38	
		HAMMASI	7200	240	

Xalq ijodiyoti: baxshichilik va dostonchilik ta'lif yo'naliishi bo'yicha majburiy fanlar

T/r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklama hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	6240	208	
1.01	O'YT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DNK1104	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FFA1104	Falsafa	120	4	3
1.04	MPP1204	Musiqiy pedagogika va psixologiya	120	4	3-4
1.05	PTPM1204	Pedagogik texnologiyalar va	120	4	5-6

		pedagogik mahorat			
1.06	KP1204	Kasbiy pedagogika	120	4	7-8
1.07	DIB1820	Doston ijrochiligi (baxshichilik)	600	20	1-8
1.08	DMXO'1818	Dostonlarning musiqiy xususiyatlarini o'rganish	540	18	1-8
1.09	DIO'U1205	Doston ijrochiligini o'qitish uslubiyati	150	5	6-7
1.10	CHI1818	Cholg'u ijrochiligi	540	18	1-8
1.11	O'FI1511	O'zbek folklori	330	11	1-5
1.12	JES1307	Jahon epik san'ati	210	7	5-7
1.13	SN1406	Sahna nutqi	180	6	1-4
1.14	SM1409	Sahna mahorati	270	9	5-8
1.15	DIA1817	Doston ijrochiligi asoslari	510	17	1-8
1.16	TCHO'1404	Turdosh cholg'ularni o'rganish	120	4	3-6
1.17	OYQ1404	Ovozni yo'lga qo'yish	120	4	1-4
1.18	JMT1204	Jahon musiqasi tarixi	120	4	1-2
1.19	O'MTI1409	O'zbek musiqasi tarixi	270	9	1-4
1.20	SHXMT1204	Sharq xalqlari musiqasi tarixi	120	4	7-8
1.21	XMI1204	Xalq musiqa ijodiyoti	120	4	7-8
1.22	MN1614	Musiqa nazariyasi	420	14	1-6
1.23	SOL1613	Solfedjio (doston solfedjio)	390	13	1-6
1.24	FNO1405	Fortepiano	150	5	3-6
1.25	XT1612	Xorijiy til	360	12	3-8
2.00		Tanlov fanlar	360	12	
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Baxshi. Baxshichilik va dostonchilik fanlari o'qituvchisi</i>			
		JAMI:	6600	220	
	Malakaviy amaliyot		450	15	2,4,6,8
	Bitiruv malakaviy ishi		150	5	8
		JAMI:	600	20	
	HAMMASI:		7200	240	



Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Havaskor badiiy jamoalar, to'garaklar, uslubiy ta'minot, badiiy jamoalar uchun repertuarlar, xalq kuy-qo'shiqlari, notalashtirish, festival, ko'rik-tanlovlar, ishtirok etish, O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi, tashkiliy va ijodiy ishlar, musiqiy ijrochilik, zamonaviy texnologiyalar, madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish, madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish, ijodiy-ishlab chiqarishni tashkil etish, aholining dam olishini tashkil qilish, badiiy jamoalarni tashkil etish va faoliyatini boshqarish, festival, ko'rik-tanlovlarni tashkil etish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lif muassasalari hamda
kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat san'ati va madaniyat instituti

Rektor: N.B.Sayfullayev



M.O.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tadqiqotlari
markazi

Direktor: M.R.Boltaboyev

2024-yil " " —————

M.O.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musaqa san'ati instituti

Rektor

O.A.Nazarbekov

2024-yil " " —————

O'zbekiston davlat konservatoriysi

Rektor

K.T.Urinbayev

2024-yil " " —————

M.O.

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi
Ta'lif sohasini muvofiqlashtirish
bo'limi

Bo'lim boshlig'i

O.R.Salixov

2024-yil " " —————

M.O.

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy
meros ilmiy-tadqiqot instituti

Direktor v.b.

I.A.Dadajanova

2024-yil " " —————

M.O.

O'zbekiston davlat filarmoniysi

Bosh direktor

A.Y.Tojiboyev

" " —————

M.O.